

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



«TASDIQLAYMAN»

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**

K.Seitnazarov

«___» _____ 2025 y.

**13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi
(boshlang'ich ta'lim) bo'yicha tayanch doktorantura imtihon**

D A S T U R I

NUKUS-2025

Tuzuvchilar:

p.f.d., prof. Z.Kurbaniyazova
p.f.f.d. (PhD), dots. S.Tajbenova
p.f.f.d. (PhD), dots. N.Nagmetova

Taqrizchi:

p.f.n., prof. A.Tilegenov

KIRISH

Hozirgi davrda boshlang'ich ta'lim metodikasi sohasi pedagogik madaniyatni rivojlantirish, yangicha tafakkurni tarkib toptirish, kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Boshlang'ich ta'lim metodikasi fanidan ma'lumotga ega har bir talabgor, o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablarini bilishlari lozim.

Ta'im va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi doirasida fanlarni o'qitish metodikasi va fanga oid muammolarning umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, sinfdan va maktabdan tashqari ta'limga oid pedagogik muammolar hal etilishi nazarda tutiladi. Ushbu ixtisoslik bo'yicha bajarilgan dissertatsiya ishlari Respublikamiz uzliksiz ta'lim tizimining rivojlanishiga muayyan hissa qo'shishga qaratiladi.

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi sohasiga tegishli dissertatsiyalarda jamiyatning ijtimoiy-moddiy, ma'naviy-ma'rifiy faollik sohalaridagi o'zgarishlar talablari asosida boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish mazmunini va metodikasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, metodik asoslari, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish metodologiyasi, aniq fanlarni o'qitish metodikasining tarixiy hamda zamonaviy mazmuni, metodlari, shakllari, vositalariga mo'ljallangan ilmiy -nazariy, amaliy-metodik muammolari bilan bir qatorda fanning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar, imtihon savollarni o'z ichiga olgan.

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi – bo'yicha doktoranturaga topshiruvchilar uchun “Mutaxassislik” fanlaridan imtihon-dasturi 5111700 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan ixtisoslik fanlaridan: Ona tili o'qitish metodikasi, Matematika o'qitish metodikasi, Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi, Texnologiya va uni o'qitish metodikasi, Tarbiya ishlari metodikasi fanlarini o'z ichiga oladi.

ASOSIY QISM

Mutaxassislik fanlarini o'qitish qonuniyatlari va printsiplari. Boshlang'ich ta'limda innovatsion-korporativ sheriklik asosida uzluksiz amaliyotni tashkil etish texnologiyasi, mutaxassislik fanlaridan o'quv va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish. Mutaxassislik fan o'qituvchisining o'quv-me'yoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metod va vositalari. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllarining umumiy tavsifi. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalar (o'quvchilar)ning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi. Nutqiy kompetensiyalarni (tinglab tushunish, gapirish) shakllantirish metodikasi. Uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim muammolari.

Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi: Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining umumiy masalalari. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari. Ona tili o'qitish printsiplari, ona tili o'qitish metodikasining tekshirish usullari.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning xususiy masalalari. Savod o'rgatish metodikasi. Savod o'rgatish metodikasining maqsad va vazifalari. Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari. Savod o'rgatishda hozirgi zamon analiz-sintez tovush metodi. Bolalarning savod o'rgatishga tayyorgarligini o'rganish. Savod o'rgatish jarayoni bosqichlari. Savod o'rgatishda tayyorlov davri, bu bosqichdagi o'qish va yozuv darslarining mavzulari hamda ish turlari. Savod o'rgatishda mashq turlari. Savod o'rgatishda nutq o'stirish. Savod o'rgatish davrida boshlang'ich yozuvga o'rgatish. Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish darslari.

Husnixatga o'rgatish metodikasi. Husnixatga o'rgatishning maqsad va vazifalari, ahamiyati. O'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati, chiroyli yozuv o'quvchida mehnat qobiliyatini shakllantirishi, yuklatilgan vazifani toza, aniq, madaniyat bilan bajarishga o'rgatishi, estetik didni tarbiyalashi, chiroyli yozuv imlo xatolarining oldini olishi. Yozuvlar tarixidan ma'lumot. Yozuv turlari. Husnixatga o'rgatish tarixidan ma'lumot. Xattotlik san'ati. Xattotlik maktablari haqida ma'lumot. Hirot maktabi haqida ma'lumot. Husnixatga o'rgatishning gigiyenik shartlari. Yozuvning gigiyenik shartlari. Yozuvning metodik shartlari. Yozuv materiallari va qurollari. Yozuv qurollari va ulardan foydalanish. Xattaxtaga qo'yiladigan talablar. Alifboning yozma shakli. Husnixat daftari qo'yiladigan talablar. Bo'rga qo'yiladigan talablar. Ruchkaga qo'yiladigan talablar Husnixatga o'rgatish tamoyillari. Onglilik tamoyili. Genetik tamoyil. Takrorlash tamoyili. Ko'rgazmalilik tamoyili. Bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. Yozuvga o'rgatishning o'qishga o'rgatish bilan bir paytda amalga oshirish tamoyili. Chiroyli yozuvning imlo bilan bog'liqligi tamoyili. Savodli

yozuvning grafik bilimlar bilan bog'liqlik tamoyili. Husnixatga o'rgatish usullari. Chiziqii usul. Genetik usul. Namunaga qarab yozuv usuli. Namunaga qarab ko'chirib yozuv usuli. Nusha ko'chirish usuli. Tasavvur orqali yozuv usuli. Ritmik usul (sanoq-ohang). Harf shakllarni tahlil qilish usuli. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish usuli. Qo'l harakatini mashq qildirish usuli. 1-4 sinflarda husnixat darslari. Husnixat darslarini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar. 1-2 sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish. 3-4 sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish.

Sinfda o'qish metodikasi. Sinfda o'qish darslarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati va vazifalari. O'qish darslarining tarbiyalovchi imkoniyatlari. O'qish malakasi haqida tushuncha. O'qish malakalarining sifatlari: tez, ongli, ifodali o'qish. O'qish malakalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirish yo'llari. Ifodali o'qish metodikasining asoslari. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish. Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari. Kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy idrok etishdagi psixologik xususiyatlari. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni. Har xil janrdagi asarlarni o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari. Ertakni o'qish metodikasi. O'quvchilarni ertak janri bilan tanishtirish. O'quvchilarni ertakni o'qishga tayyorlash. Hikoya janridagi asarni o'qitish metodikasi. She'riy nutqning xususiyatlari. She'rni tahlil qilish uslubiyoti. She'rni o'qitish darsida asosiy ish turi ifodali o'qish ekani. Lirik she'rni o'qishga tayyorlash. Masal janridagi asarlarni o'qitish metodikasi. Ilmiy-ommabop asarlarni o'qitish metodikasi. Topishmoq, tez aytish, maqol janridagi asarlarni o'qitish metodikasi. Doston janridagi asarlarni o'qitish metodikasi.

Ona tili darslarida sinfdan tashqari o'qish metodikasi. Bolalarning mustaqil o'qishi haqida tushuncha, uning vazifalari. To'g'ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma. Boshlang'ich maktabda kitobxon o'quvchilarni shakllantirish bosqichlari. Kichik yoshdagi o'quvchilarda kitobxonlik mustaqilligini shakllantiradigan mashg'ulot va darslar qurilishini asosiy turlari.

Fonetika, grammatika, so'z yasalishi va orfografiyani o'rgatish metodikasi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini o'rgatishning ahamiyati. Ona tilini o'rgatishning lingvistik asoslari. Boshlang'ich ta'limda ona tilini o'rgatish mazmuniga tavsifnoma. Fonetika va grafika asoslarini o'rgatish usuliyati. Kichik yoshdagi o'quvchilarning ona tilini o'zlashtirishida fonetika bilimining ahamiyati. O'quvchilarda so'zning tovush va harf tarkibi haqidagi boshlang'ich tasavvurini shakllantirish. O'quvchilarda grammatika va so'z yasalishiga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari. Grammatik tushunchaning mohiyati va uni kichik yoshdagi o'quvchilar o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar. Tushunchani o'zlashtirish ustida ishlash jarayoni, uning shartli ravishda to'rt bosqichga bo'linishi. Boshlang'ich sinflarda so'zning morfemik tarkibini o'rganish metodikasi. So'zning morfemik tarkibini o'rganish tizimi. Asos va qo'shimcha ustida ishlashning mazmuni va metodikasi. So'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi ustida ishlash. So'z turkumlarini o'qitish metodikasi. Otni o'rgatish tizimi. Otning leksik va grammatik ma'nosi ustida ishlash. Otlarda son haqida tushunchani o'rganish metodikasi. Otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishini o'rganish. Otlarning kelishik

qo'shimchalari bilan turlanishini o'rgatish. Ot yasovchi qo'shimchalar. Boshlang'ich sinflarda sifatni o'rganish tizimi. Mavzuni o'rganishning vazifalari. Sifatni o'rganish jarayonida leksik-stilistik ishlar. Boshlang'ich sinflarda sonni o'rganish tizimi. Boshlang'ich sinflarda sonni o'rganishning vazifalari, tizimi. Olmosh, kishilik olmoshlarini o'rganish metodikasi. Boshlang'ich sinflarda fe'lni o'rganish tizimi. Fe'lni o'rganishning vazifalari. Fe'lni o'rganishda izchillik. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni o'rganish. Fe'llarda zamon mavzusini o'rganish. Fe'llarda shaxs-son qo'shimchalari. Fe'lni o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish.

Boshlang'ich sinflarda sintaksis va punktuatsiya elementlarini o'rganish. O'quvchilarda asosiy sintaktik tushunchalarni shakllantirishning shart-sharoitlari. Kichik yoshdagi o'quvchilarni punktuatsiya bilan tanishtirish. Materiallarni sinflarga joylashtirish tizimi. Orfografiyani o'rganish metodikasi. To'g'ri yozishni o'rgatish yo'nalishlari. Orfografik malakaning psixologik tabiati. Imlo qoidasi ustida ishlash metodikasi. Imloviy mashqlar. Ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish. To'rt yillik boshlang'ich ta'lim "Ona tili" darslariga tavsifnoma. Ona tili darslari. Darsga umumiy tavsifnoma. Ona tili darslarining turlari va qurilishi.

Nutq o'stirish metodikasi. Kichik yoshdagi o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari. Nutq va uni o'stirish tushunchasi. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar. Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vosita.

Lug'at ustida ishlash. Maktabda lug'at ustida ishlashning asosiy yo'nalishlari. O'qish, badiiy asarni qayta hikoyalash, materialni o'rganish, bayon va inshoga tayyorlanish bilan bog'liq holda o'quvchilar lug'atini faollashtirish yo'llari.

O'quvchilar nutqini o'stirish tizimida sintaktik ishlar. O'quvchilar egallaydigan sintaktik ko'nikmaning darajasi. Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi va nutq ustida ishlash. Gap ustida ishlash mashqlarining turlari.

Bog'lanishli nutq va uni o'stirish vazifalari. Bog'lanishli nutq haqida umumiy tushuncha. Bog'lanishli nutqdan mashq turlari. Bog'lanishli nutqqa oid aniq ko'nikmalar. Matn turlari. Bog'lanishli nutq. Og'zaki qayta hikoya qilish va yozma bayon. Namunaviy matnni qayta hikoyalash va bayon yozishga qo'yilgan talablar. Qayta hikoyalash va bayonning turlari. Bog'lanishli nutq. Og'zaki hikoya va yozma insho. Og'zaki va yozma insho turlari. O'quvchilar inshosini tahlil qilish va undan keyingi ishlar. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari. O'quvchilar yo'l qo'yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to'g'rilash va oldini olish yo'llari. Boshlang'ich sinf ona tilidan sinfdan tashqari ishlar. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar. Sinfdan tashqari ishlarning shakllari va vazifalari.

Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasi: Boshlang'ich sinfdan matematika o'qitish metodikasi fan sifatida. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi fan sifatida, fanlararo bog'liqligi. Metodik tizimning asosiy komponentlari: o'qitish maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi maqsadi va vazifalari.

Boshlang'ich sinflarda matematika kursining mazmuni va tuzilishi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining mazmuni va tuzilishi. Boshlang'ich sinflarda matematika fanning fanlararo aloqadorligi. "Matematika o'qitish metodikasi" fani tuzilishining o'ziga xos xususiyatiari, uning mazmuni. DTS, dastur va darsiik sinfiar kesimida tahlili. Bolalar bog'cliasi va boshlang'ich sinflarda matematika fani o'qitilishi orasidagi uzviylik.

O'qitish metodlari. Matematik tushunchalar haqida tasavvur hosil qilishda nazariy ma'umotlarning o'rni. Boshlang'ich sinf matematikasi va matematika o'qitishning bosqichlari orasidagi uzviylik. O'quvchilarning o'quv yili oxiridagi bilim, ko'nikma hamda malakalariga qo'yilgan dastur talablari asosida nazorat tahlili. Metod tushunchasi. Uning turlari va tasnifi. O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi va ular orasidagi bog'liqlik. O'qitishni tashkil qilishda didaktik o'yin metodidan foydalanish. O'quvchilar bilimini o'zlashtirish samaradorligini aniqlash metodlari. O'quvchilarning faollik darajasiga ko'ra qo'llaniladigan metodlar. Boshlang'ich sinf matematika darslarida interaktiv metodlardan foydalaninsh. Matematika darsida nazorat turlari va ularni tashkil qilish, o'quvchilarning daftar bilan ishlash metodlari.

Boshlang'ich sinfda matematika o'qitishni tashkil qilish shakllari. Boshlang'ich sinfda matematika darsining tuzilishi va dars tizimi. Dars, dars mazmuni, texnologik xaritalar tuzish. Muammoli dars va uni tashkil qilish usullari. Darsni tahlil qilish.

Boshlang'ich sinfda matematikadan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish. Ta'limning darsdan tashqari yordamchi shakllari (to'garak, matematika kechasi va boshqa turlari); o'zlashtirmaydigan o'quvchilar bilan ishlash; o'quvchilar uy vazifalari, uni tashkil qilishga qo'yilgan talablar; o'quvchilar bilimini tekshirish metodlari; darsdan tashqari mashg'ulot turlari, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos tarixiy ma'lumotlar mazmuni. Boshlang'ich sinfda matematika darslarida qo'llaniladigan o'quv vositalari va ularning vazifalari. Matematikadan boshlang'ich sinfiar uchun darsliklar, ularning mazmuni va tuzilishi. Turli metodik qo'llanmalar, ko'rgazmalar va ulardan foydalanish. O'qitish vositalardan ijodiy foydalanish va yasaladigan ko'rgazmali ko'rsatmalar. Oz komplektli maktablarda matematika o'qitish xususiyatiari. Oz komplektli maktablarda matematika o'qitishni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatiari. Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish. Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash.

Boshlang'ich sinflarda nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o'rgatish metodikasi. O'quvchilarni maktabgacha bo'lgan davrda matematik tayyorgarligi darajasini aniqlash va ularni tartibga solish. Nomerlashga o'rgatishga tayyorgarlik. Son va sanoq tushunchasini shakllantirish bosqichlari. O'nli sanoq sistemasi xususiyatiari va uning nomerlashga asos qilib olinishi. Kontsentrlar bo'yicha nomerlashga o'rgatish metodi. Darsni tashkil qilish, ko'rgazmalilik hamda didaktik materiallardan foydalanish. Raqamlashga o'rgatishda matematik diktantning o'rni.

Boshlang'ich sinflarda 10, 100, 1000 va ko'p xonali sonlar ustida nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o'rgatish metodikasi.

Boshlang'ich sinflarda asosiy miqdorlar va ularni o'lchov birliklarini o'rgatish metodikasi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan asosiy miqdorlar: uzunlik, massa, narx, baho, vaqt, masofa, tezlik. Miqdorlarni o'lchash, o'lchov birliklarining turlari orasidagi bog'liqliklar va ular ustida amallar bajarishga o'rgatish metodikasi. Uzunlik va yuza o'lchov birliklari. Massa va sig'im o'lchov birliklari. Vaqt o'lchov birliklari.

Nomanfiy sonlar ustida arifmetik amallarni o'rgatish metodikasi. O'nlik, yuzlik, minglik va ko'p xonali sonlar konsentrida arifmetik amallarni o'rgatish metodikasi. Nomanfiy sonlar ustida arifmetik amallarni o'rgatish metodikasi. Arifmetik amallarni o'rgatishning umumiy masalalari. Qo'shish va ayirish, ko'paytirish va bo'lish amali ma'nosini ochib berish hamda uni bosqichlab konsentrlarda bajarilishini o'rgatish. O'quvchilarning og'zaki va yozma hisoblash malakalarini shakllantirish. Qo'shish va ko'paytirish jadvallari va ularga mos ayirish va bo'lish hollarini o'rgatish. Og'zaki hisoblash texnologiyalari. Yozma hisoblash algoritmini o'rgatish. Hisoblash malakalarini tekshirish uchun nazorat ishlari. Hisoblashda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni aniqlash va uni bartaraf qilish yo'llari. Og'zaki va yozma hisoblashga doir didaktik (o'yinlar) topshiriqlar to'plamini tuzish.

Algebrak materiallarni o'rgatish metodikasi. Boshlang'ich sinflarda algebra elementlarini o'rgatish metodikasining umumiy masalalari. Son va ifoda tushunchasi. Sonli va harfiy ifoda. O'zgaruvchi qatnashgan ifoda. Tenglik va tengsizlik. Sonli tenglik, tengsizlik va uni yechishga o'rgatish metodikasi. Tenglama va uni yechishga o'rgatish usullari. Tenglik va tengsizliklarni o'rgatish metodikasi bilan tanishtirish. Sodda tenglamalarni o'rgatish metodikasi. Tenglama tuzilishi, turlari. Tenglamalar yechish metodikasi.

Geometrik materiallarni o'rganish metodikasi. Nuqta, kesma, ko'pburchak tushunchasi haqida tasavvurni shakllantirish va ularni chizish, ayrim xossalari bilan tanishtirish metodikasi. Sodda geometrik yasash ishlari bilan tanishtirish, fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish. Burchaklar va ularning turlari. Figuralarni farqlay olish, qismlarga bo'lish, qismlardan figuralar hosil qilish, ko'pburchaklar perimetri hamda yuzasini hisoblash, perimetr va yuza o'lchov birliklari va ular orasidagi bog'lanishga doir masalalar yechish. Boshlang'ich sinflarda Perimetr va yuza (Sig'im, hajm) tushunchalarini o'rgatish metodikasi. Koordinata burchagi. Nuqta koordinatasi. Ko'pyoq. To'g'ri burchakli parallelepiped. Fazoviy shakllar. Kub va uning elementlari. Grafik ko'rinishdagi ob'ektlar ustida ishlash. Sodda grafiklar, diagrammalar, jadvallar. Burchak turlari. Yoyliq burchak. Burchak gradusi. 30, 45, 60, 90 gradusli burchaklarni transportir yordamida o'lchash. Soat millari. Shakllarni burish. Burchak simmetriyasi. Simmetrik shakllar. Simmetriya o'qlarini topish. Ko'pyoq modellari va ularning elementlari.

Kasr tushunchasi bilan tanishtirish metodikasi. Kasr tushunchasi bilan tanishtirish metodikasi. Ulush. Butunning ulushini topish. Ulushga ko'ra butunni topish. Maxraji 10 dan oshmagan kasrlarni taqqoslash. Maxrajlari bir xil bo'lgan

kasrlarni qo'shish va ayirishning ma'nosi. Sonning kasr qismi va kasrga ko'ra sonni topishga doir masalalar yechish. Kasr. Maxraji 2, 4, 8 bo'lgan kasrlar tushunchasi. Maxraji 2, 4, 8 bo'lgan teng kasrlar. Maxraji 3, 4, 5, 6, 8, 12 bo'lgan kasrlarni yarim ulush bilan taqqoslash. O'nli kasrni to'g'ri kasr ko'rinishda ifodalash. O'nli kasrlar ustida arifmetik amallar.

Arifmetik masalalar yechishga o'rgatish metodikasi. Masala va uning tarkibi. Sodda va murakkab masalalar. Masala tuzish va uni yechish. Masala yechishga o'rgatish bosqichlari va uning mantiqiy asosi. Masalalar turlari va ular ustida ijodiy ishlash. Konsentrlar (10, 100, 1000 va ko'p xonali sonlar) bo'yicha masalalar yechish ustida ishlash. Masala yechishga o'rgatishning umumiy usullari ustida ishlash. ro'g'ri to'rtburchak va kvadratning perimetrini, yuziga doir masalalar yechishga o'rgatish. Yuzlarni formula yordamida hisoblashga doir masalalar. Bir o'zgaruvchili tenglamalar bilan yechiladigan murakkab masalalami yechishga o'rgatish. Masalalarni tenglama va jadval tuzib yechish. Sonli tenglik va tengsizliklarga oid masalalar yechish. Murakkab masalalar yechish usullari. Masalani bir o'zgaruvchili tenglama yordamida yechish.

Matematika o'qitish metodikasining taraqqiyoti tarixi. Matematika o'qitish metodikasining tarixi, taraqqiyot bosqichlari hamda rivojlanish yo'llari.

Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi: Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari va tadqiqot metodlari. Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasining nazariy tushunchalariga ega bo'lish, tabiiy fanlarni o'qitish metod va o'rgatishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni tarbiyalash. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatga bo'lgan ongli munosabatini tarbiyalash. Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasining pedagogika o'quv predmeti sifatida ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlari, ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati.

Quyosh sistemasi. Koinot. Asosiy kimyoviy moddalar. Gallaktika, uning turlari va tuzilishi. Yulduzlar tizimi. Quyosh sistemasi va sayyoralar. Merkuriy. Venera. Mars. Yupiter. Neptun. Saturn. Uran. Quyosh sistemasidagi sayyoralarning o'rganilganlik darajasi. Sayyoralar va Quyosh orasidagi masofa. Yulduzlar, kometa, asteroid va meteoritlar.

Yerning shakli va harakati. Yer. Yerning shakli. Yerning o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi. Kun va tun almashishi. Yil fasllarining almashishi. Ekvator. Meridian va parallel chiziqlari. Globus. Harita. Oy. Uning fazalari.

Yerning geografik qobig'i. Litosfera. Materiklar. Qit'alar. Yadro. Mantiya. Tog'lar. To'qaylar. O'rmonlar Chollar. Zilzilalar. Seysmik mintaqalar. Vulqonlar. Tabiat mintaqalari. Tuproq Tuproqning tuzilishi, unumdorligi va ahamiyati. Foydali qazilmalar. Yerning geografik qobig'i. Gidrosfera. Okean. Dengiz. Daryo. Suv omborlari. Ko'llar. Yer osti suvlari. Orol. Yarim orol. Botqoqliklar. Yerning geografik qobig'i. Atmosfera. Troposfera. Stratosfera. Mezosfera. Termosfera. Ekzosfera. Tropopauza. Stratopauza. Mezopauza. Termopauza. Quyosh radiatsiyasi. Quyosh doimiyligi. Ob-havo. Yog'inlar: qor, yomg'ir, do'I, tuman, qirov, shudringlarning hosil bo'lishi. Biosfera haqida umumiy tushuncha. Biosferaning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Modda va energiya aylanishida biosferaning ahamiyati. Tirik organizmning gorizontal va vertical

yo'nalishda o'zgarishi. Biosferaning ifloslanishi va uning oldini olish masalasi. V.I.Vernadskiyning tirik organizmlarning 5 ta asosiy bioximik funksiyalar. V.I. Vernadskiy ta'limotiga binoan biosferaning tarkibiy gismi.

O'simliklar anatomiyasi, fiziologiyasi. Tiriklik belgilari. Hujayraning oziqlanishi, rivojlanishi va ko'payishi. Botanika fanining vazifalari. Floraning inson hayotidagi ahamiyati. O'simliklarning organlari. Generativ va vegetativ a'zolar. Gulli o'simliklarning ko'payishi. Ularning turlari, oilalari, xususiyatlari. Bir urug'pallali va ikki urug'pallali o'simliklar va ularning tuzilishi, farqlari. O'simliklarning hayotiy shakllari. O'simliklarning asosiy bo'limlari va O'zbekistonning o'simlik qoplami. Tuban o'simliklar. Yuksak o'simliklar. O'zbekistonning o'simlik qoplami. Cho'l, o'rmon, to'qay, tog' o'simliklari

Hayvonot olamining xilma-xilligi va uning tabiatda tutgan o'rni. Hayvonot olamining xilma-xilligi, tuzilishi, hayvonlarning xulq-atvori, ko'payishi, rivojlanishi, geografik tarqalishi va kelib chiqishini, shuningdek, ularning tabiatdagi va odam hayotidagi ahamiyatini o'rganadi. Bir xujayrali organizmlar. Hayvonot olamida sinf, tur va avlod. Baliqlar. Sudralib yuruvchilar. Qushlar. Sut emizuvchilar.

Odam va uning salomatligi. Odam tana qismlari tuzilishi va funksiyalari. Xujayra, to'qima, organ, organlar sistemasi. Sog'lom turmush tarzi. To'g'ri ovqatlanish. Tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish. Tugaydigan va tugamaydigan tabiiy resurslar. Tabiiy resurslarning ahamiyati va ulardan oqilona foydalanish. Tabiiy yodgorliklar va ularni muhofaza qilish. Muhit va ekologik omillar. Tabiiy va sun'iy muhit, moslanish va uning turlari, abiotik, biotik, antropogen omillar.

Ekologik muammolar. Xududiy, mintagaviy, global ekologik muammolar. Ekologik muammolarni oldini olish. Ekologik ong va ekologik madaniyat. Energiya. Issiqlik va yorug'lik. Tovush. Harakat va tezlik. Energiya. Issiqlik va yorug'lik. Tovush. Harakat va tezlik. Magnit. Tabiiy fanlarining shakllanishi va rivojlanishi. Tabiiy fanlari ta'limotining shakllanishiga hissa qo'shgan olimlar va fanning rivojlanishiga hissa qo'shgan metodistlar. Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarining tamoyillari va gonuniyati. Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasini o'qitishga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Didaktika tamoyillari to'g'risida tushuncha. O'qitish tamoyillari (ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash va insonparvarlashtirish, ilmiylik, sistemalilik, fundamentallik, ko'rgazmalilik, samaradorlik, onglik, tushunarlik, ta'limni differentsiallashtirish va individuallashtirish, individual va guruhlarda o'qitishni uyg'unlashtirish, o'qitish maqsadi, mazmuni, vositalari, metodlari, shakllari natijalarining birligi, baholash va o'zini-o'zi baholash) lari va qonuniyat (o'qitish maqsadi, mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining ijtimoiy muhitga bog'liqligi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi ta'lim, ta'lim-tarbiya jarayonini tahsil oluvchilarning faoliyati harakteriga bog'liqligi, pedagogik jarayon birligi va yaxlitligi, o'qitishning nazariy va amaliy birligi va uzviy bog'liqligi, o'quv faoliyatini individuallashtirish va guruhli o'qitishni uyg'unlashtirish)lari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida biologiya, geografiya, fizikaga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari. Geografiya, biologiya, fizikaga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirish asoslari. Geografiya, biologiya, fizikaga oid tasavvur va tushunchalarning klassifikatsiyasi. Boshlang'ich sinflarda geografiya, biologiya, fizikaga oid tushunchalarni shakllantirish va rivojlanish usullari. Geografiya, biologiya, fizika tushunchalarini o'zlashtirish jarayoni (kuzatish, qabul qilish, konkretlashtirish, umumiyashtirish, aniqlash). Metodlar klassifikatsiyasi. Tabiiy fanlarni o'qitishda foydalaniladigan metodlar tasnifi. Zamonaviy maktab tomonidan o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar. Metod va metodik uslub. O'qitishning og'zaki metodlari: Hikoya, suhbat, kitob bilan ishlash. 20-mavzu: O'qitishning ko'rgazmali metodi. Ko'rgazmali metodlar tasnifi. Tabiiy jismlar bilan ishlash. Rasmlar bilan ishlash. Ko'rgazmali qurollarni, tajriba, kino va video filmlarni hamda sxemalarni namoyish qilish (ko'rsatish). Ularga qo'yiladigan didaktik talablar.

O'qitishning amaliy metodlar turlari hamda tavsifi. (qisqa va uzoq muddatli kuzatishlar, amaliy va laboratoriya ishlari, asbob-uskunalar bilan mustaqil ishlar). Jo'g'rofik maydoncha, o'quy-tajriba maydonchasi va tabiat burchagida kuzatish hamda amaliy ishlar. O'quvchilar ijodiy gubiliyatlarini rivojlantirishda amaliy ishlarning ahamiyati. Eksperimentlar. O'qitishning ko'rgazmali metodi. Ko'rgazmali metodlar tasnifi. Tabiiy jismlar bilan ishlash. Rasmlar bilan ishlash. Ko'rgazmali qurollarni, tajriba, kino va video filmlarni hamda sxemalarni namoyish qilish (ko'rsatish). Ularga qo'yiladigan didaktik talablar.

Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarini o'qitish metodlari va vositalari. Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarini o'qitish vositalari. Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlari o'quv xonasi va o'quy jihozlariga qo'yiladigan pedagogik, gigienik, estetik va psixologik talablar. Tabiiy fanlarni o'qitish xonasidagi jihozlar. O'qitish vositalarining xillari: tabiiy va tirik ob'ektlar (gerbariy, kolleksiya, mikropreparatlar), tasviriy Jadvallar, sxemalar, xaritalar, mulyajlar, maketlar), ekran vositalari (o'quv vositalari, slaydlar, multimedialar) va ulardan foydalanish yo'llari. O'qitishning texnikaviy vositalari. Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlari moddiy bazasini tashkil etish. Tabiiy fanlarni o'qitishda mavzuga mos kurgazmali qurollar tayyorlash. O'lkashunoslik burchagi. Jonli tabiat burchagini tashkil etish va u yerda kuzatish ishlarini olib borish. Geografiya maydonchasi va unda amaliy ishlarni tashkil qilish, o'quv-tajriba maydonchasini tashkil etish va u yerda kuzatish ishlarini olib borish Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlaridan o'quv ishlarini tashkil etish shakllari hamda ta'limiy-tarbiyaviy vazifalari. Dars - o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli. Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarini darslarining turlari. Oquv tarbiyaviy jarayonga tizimli yondashuvning mohiyati. Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarida o'quvchilarni ma'naviy, ahloqiy, aqliy, vatanparvarlik, ekologik, estetik, igtisodiy, jinsiy, gigienik, mehnat va baynalminal ruhda tarbiyalash vazifalari.

Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarida ekskursiya darslari. Oz komplektlangan maktablarda o'quv tarbiya jarayonini tashkillashtirishning o'ziga xosligi. Ekskursiya darsi va uning boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlarni o'rganishdagi o'rnini. Ekskursiya darslari va uni tashkil etish. Ekskursiya darslarida

turli metodlardan foydalanish. Ekskursiya darsi davomida predmetlararo bog'lanish didaktik tamoyilining amalga oshirish yo'llari. Oz komplektlangan maktablarda integratsiyalashgan darslar Oz komplektlangan maktablarda o'quv-tarbiya jarayonini tashkillashtirish xususiyatlari, dars o'tish tamoyillari va usullari Tabiatshunoslikni o'qitishning sinflar bo'yicha tabaqalashtirilgan variantlari. Oz komplektlangan maktablarda mustaqil mashg'ulotlarning o'zni, turlari va ularni tashkil etish qoidalari. Har xil sinf o'quvchilarni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda birlashtirish tamoyillari (printsipalari) Oz komplektlangan maktablarda ekskursiyalar o'tkazish tartibi va qoidalari. Darslarni integratsiyalash - oz komplektlangan maktablarning asosiy tamoyillaridan biri.

Boshlang'ich ta'limda texnologiya va uni o'qitish metodikasi: Texnologiya ta'limi va tarbiyasining maqsad va vazifalari. Texnologiya o'qitish metodikasi fanining vazifalari. Texnologiya fanini o'qitishda metodik yondashuv. O'quvchilarni mehnatga axloqiy, ruhiy va amaliy tayyorlash. Texnologiya darslarini tashkil qilish shakllari. Texnologiyaga munosabatni shakllantirish. Boshlang'ich Texnologiya fani elementlari bilan tanishtirish. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining o'qitish metodologiyasi. Texnologiya fanini o'qitish tamoyillari. Texnologiya fani nazariyasining asosiy negizlari. Texnologiya fani ta'limi va tarbiyasining uzviyligi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni. Boshlang'ich sinf texnologiya fani DTS tahlili. O'quv fan dasturlarining mazmuni va ularning tahlili (1-4 sinflar kesimida). O'quv dasturining mazmuni va unga qo'yilgan talablar. Texnologiya darslaridagi amaliy ish turlari va mazmuni. Boshlang'ich sinf texnologiya darslariga kompetensiyalar yondashuv. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darsi mavzulariga qo'yilgan talablar. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi tuzilishi o'ziga xos xususiyatlari va mazmuni. Barcha materiallarni o'rganishdagi uzviylik va uzluksizlik. Texnologiya ta'limining shakl va metodlari. Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining shakl va usullari. Metod tushunchalari, uning turlari. O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi va ular orasidagi bog'liqlik. O'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishning shakl va usullari, didaktik materiallardan foydalanish metodlari.

Texnologiya fani darslariga integratsion yondashuv. Integratsiyalashgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning metodik xususiyatlari. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish omillari. O'quvchilarning mehnat tarbiyasida mehnat an'alarining o'zni. Xalq merosida mehnat an'alaridan o'zni. Mehnat an'alarining o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati. Texnologiya darslarida mehnat an'alaridan foydalanishning shakllari. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasining targ'ib etilishi. Mutafakkirlarning kasb-hunarga oid fikrlari. Kasb-hunarga yo'naltirishga oid o'yin va tadbir turlari. Boshlang'ich ta'limda mehnat tarbiyasi va kasb-hunar turlari. O'quvchilarni mehnatga tarbiyalash. Kasb-hunarlar xaqida tushuncha. Kasb-hunar turlari va mazmuni. Texnologiya darslarida kasb-

hunarga yo'naltirish. Mehnat tarbiyasida xalq og'zaki ijodining o'rni. Xalq og'zaki ijodida mehnat tarbiyasining targ'ib etilish. Xalq maqollarida mehnat tarbiyasi. Xalq rivoyatlari asosida o'quvchilarni mehnatga o'rgatish.

Texnologiya darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyalari. Texnologiya darslarida kasb-hunarga yo'naltirish. Kasbga oid ma'lumotlar. Kasbga yo'naltirishda turli boshqotirmalardan foydalanish. Kasbga yo'naltirishga doir o'yin texnologiyalaridan foydalanish. Texnologiya darslarida xorijiy ta'lim tizimidan foydalanish. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi. Texnologiya ta'limning ahamiyati va mohiyati. Modulli-ta'lim tizimining mohiyati. Zamonaviy ta'lim shakllari: masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar, evristik metodlar. Texnologiya darslarida qo'l mehnatidan foydalanish talablari. Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnatiga o'rgatishni tashkil qilish shakllari. Qo'l Texnologiya faniga o'rgatishda ish turlarining mazmuni. Amaliy ish samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan talablar. Mavzuga mos o'qitish metodlari.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limidan amaliy ishlar. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida amaliy ish turlari. Ish qurollaridan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish texnologiyasi. Texnologiya fani ish qurollari va ish materiallari bilan tanishtirish va ulardan foydalanish talablari. Texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish. Axborot kommunikatsion texnologiyalari haqida ma'lumot. Texnologiya ta'limi darslarida AKTdanda foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Amaliy mashg'ulotlar uchun taqdimot tayyorlash texnologiyalari. Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumot. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning shakl va metodlari. Innovatsion texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish usullari. Interfaol usullarni texnologiya darslarida foydalanish usullari. Interfaol ta'lim texnologiyalarining didaktik mohiyati. Interfaol ta'lim metodlari. Texnologiya darslarida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish tartibi. Mehnat ta'limi va tarbiyasining uzviyligi. Mehnatga munosabat. Mehnat ta'limi va tarbiyasining uzviyligi va ularning o'ziga xos jihatlari. Integratsiyalashgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish omillari.

Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi. Applikatsiya va mozaika san'ati haqida tushuncha. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash texnologiyasi. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini to'g'ri tashkil etish talablari. Applikatsiya va mozaika ishlarining o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati. Texnika xavfsizligi qoidalari. Qog'oz va karton bilan ishlash darslarining mazmunini tashkil etish metodikasi. Qog'oz va karton haqida ma'lumot. Qog'ozning ishlab chiqarishdagi o'rni. Qog'oz va karton turlari va xususiyatlari. Qog'oz va kartonga ishlov berish usullari. Qog'oz va karton bilan ishlash texnologiyasi. Ish joyini tashkil qilish talablari. Texnika xavfsizligi qoidalari. Turli xil materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi. Turli xil materiallar haqida tushuncha. Turli xil materiallarni to'plash va ishga

tayyorlash. Turli xil materiallardan turli buyumlar yasash texnologiyasi. Ish joyini to'g'ri tashkil etish talablari. Texnika xavfsizligi qoidalar.

Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi Tabiiy materiallarni to'plash va ishga tayyorlash. Tabiiy materiallardan (barglar, somon qalamchalari, yong'oq po'choqlari, patlar, o'simlik urug'lari va boshqa materiallar) applikatsiyalar va o'yinchoqlar yasash texnologiyasi. Tabiiy materiallar bilan ishlashga oid ish joyini tashkil etish talablari. Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi. Kulolchilik va haykaltaroshlik ishlari haqida ma'lumot. Plastilin va loyning tarkibi va xususiyatlari. Plastilin va loyga ishlov berish usullari. Plastilin va loy bilan ishlash darslarida ish o'rnini tashkil etish talablari. Plastilin va loy bilan ishlash darslari tashkil etish metodikasi. Plastilin va loy bilan ishlashda sanitariya-gigienik talablar. Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi. Gazlama va ip turlari. Gazlamaning xususiyatlari. Gazlamaning sanoatda ishlab chiqarilishi. Gazlama bilan ishlash metodikasi. Gazlamaga ishlov berish (o'lchash, andoza olish va qirqish) metodikasi. Gazlama bilan ishlashda ish joyini to'g'ri tashkil qilish talablari.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi: Tarbiyaviy ishlar metodikasi faning maqsad va vazifalari. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish. Xorijiy mamlakatlarda boshlang' ta'lim-tarbiya tizimi yuzasidan qisqacha izoh. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati. Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash haqida ma'lumot berish.

Tarbiya usullari va shakllari. Tarbiya usullarni tanlashga qo'yiladigan talablar. Tarbiya usullari haqida tushuncha. Tarbiyani tashkil etish shakllari. Tarbiya usullarini toyifalash haqida ma'lumot berish. Tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Sinf rahbarining maktab jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar. Sinf rahbarining "Yoshlar harakati" jamoat tashkilotlarini bilan olib boradigan ishlarni o'rganish haqida ma'lumot berish. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati. Sinf o'quvchilar tarbiyachisi. Sinf rahbari ishining asosiy qismlari. Tarbiyaviy ish-faoliyat samardorligini oshirish shart-sharoitlari haqida ma'lumot berish. Sinf rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari. O'quvchilarni o'rganish usullari. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etish usullari. O'quvchilarning o'quv samaradorligini oshirish usullari haqida ma'lumot berish.

O'quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirish usullari. Sinf rahbarining tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash usullari. Sinf rahbarining rag'batlantirish usullari. Sinfda intizomni mustahkamlash usullari haqida ma'lumot berish. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari. Sinf rahbarining ish faoliyatini o'rganish usullari. O'quvchi shaxsini tarbiyalash usullari. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari. Tarbiya

faoliyatining maqsadlari haqida ma'lumot berish. Sinf rahbari ishini rejalashtirish usullari. Sinfdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va usullari. Sinf rahbari ishini rejalashtirish metodikasi haqida ma'lumot berish. Sinf tarbiyaviy soatlari haqida umumiy tushuncha. Sinf tarbiyaviy soatlarining tarkibiy qismlari. Sinf tarbiyaviy soatlarni tashkil etish, uyushtirish va o'tkazishning tartib va uslublari. Sinf tarbiyaviy soati uchun joy tayyorlash va uning davom etish vaqti haqida ma'lumot berish. Sinf rahbarining namunaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi. Sinf rahbarining namunaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi o'rgatish haqida ma'lumot berish.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish usullari haqida ma'lumot berish. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning nazariy asoslari. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning o'quvchilar faoliyatidagi o'rni haqida ma'lumot berish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni amalga oshirishda direktor o'rinbosarining ish metodikasi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishni tashkil etish usullari. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni amalga oshirishda direktor o'rinbosarining ish metodikasini o'rganish haqida ma'lumot berish. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning umummaktab rejasi bilan bog'liqligini o'rganish. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining ish rejasi bilan tanishish. Sinf rahbarlari va ota-onalar komiteti hamkorligi ishini o'rganish haqida ma'lumot berish.

Jamoa haqida umumiy tushuncha. Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoa va uning turlari. Jamoaning bir maqsadga qaratilganligi. Jamoani tashkil etish usullari. O'quvchilar jamoasi o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalash. O'quvchilar jamoasini shakllantirish usullari. Sinf jamoasini tashkil etishda pedagogik talablar. Sinf faollarini aniqlash va tarbiyalash usullari haqida ma'lumot berish. Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari. O'quv ishlarining mazmuni. Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari. Maktabning o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining o'zaro darsga kirish usullari haqida ma'lumot berish. Ota-onalar bilan ishlash. Ota-onalar majlislarini tashkil etish. Ularga qo'yiladigan didaktik talablar.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016, - 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt laraqqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlikhar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 104 b.

5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

6. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

7. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.

8. Matchanov S., G'ulomova X., Yuldasheva Sh., A. Nisanbaeva. Ana tilin oqitu ádistemesi. –T.: TDPU, 2013. – 277 b.

9. Рахматуллаева Л.И. Методика преподавания родного языка родного языка. –Т.: Учебное пособие. Молия Иктисод, 2007.

10. A.Pirniyazova, Q.Pirniyazov, Q.Bekniyazov Baslawish klaslarda ana tilin oqituv metodikasi Nókis «Bilim» baspası 2018-j.

11. E.Berdimuratov, J.Pirniyazov, Q.Allanazarov, J.Uspanova Oqıw kitabı. (4-klass ushin sabaqlıq). – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2017.

12. Jumayev M.E Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Turon iqbol" 2016 yil. 426 b.

13. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005 yil.

14. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum.(OO'Y uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. "O'qituvchi" 2004 yil.

15. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari. (OO'Y uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006 yil.

16. Таджиева З.Ф., Абдуллаева Б.С., Жумаев М.Е., Сиделникова Р.И., Садикова А.В. Методика преподавания математики.–Т.: Турон-Иқбол, 2011. 336 с.

17. Tojiyev M., Barakayev M, Xurramov A. Matematika o'qitish metodikasi// O'quv qo'llanma.-T,: «Fan va texnologiya», 2016, -328 b.

18. M.Nuritdinova Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi' T.: O'qituvchi 2005 y.

19. A.Baxramov. Tabiatshunoslik. 4 sinf Umumiy o'rta ta'lim maktblari uchun darslik. T.: Sharq NMIU 2013.

20. A.Baxramov. Tabiatshunoslik 3 sinf Umumiy o'rta ta'lim maktblari uchun darslik T.: Cho'lpon NMIU 2008.

21. P.G'ulomov, Mirzaaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2 sinf uchun darslik T.: Cho'lpon NMIU 2012.

22. A.G.Girigoryans. Atrofimizdagi olam 1 sinf uchun darslik. T.: Cho'lpon NMIU 2012.

23. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU.2015-yil.
24. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.; TDPU. 2007-yil.
25. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar. O‘quv-metodik qo‘llanma. T.:Navro‘z. 2013-yil.
26. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaquiova A.K. “Texnologiya” 2-sinf darsligi. T.; “Sharq”. 2018-yil.
27. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mehnat ta’limi 3-sinf darsligi. T.: “Sharq”. 2016- yil
28. The Exquisite Book of Paper Flowers: A Guide to Making Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Blooms. USA, 2014. PaperbackNew York, Boston.
29. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools.
30. Michael Uljens.Sciiool Didactics and Learning: A School Didactik Model Framing an Analysis oГ Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.
31. ohn Dewey,How wc lhink(1910).Martin,Jay.The Education of John Dewey.(2003) Columbia University Press.Gutek Gerald L.(2009)New Perspectives on Philosophy and education .Pearson Education Inc.
32. P.A.Мавлонова Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент, “Фан” 2008 й.
33. R. Mavlonova,N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik, Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. Toshkent, 2014 y.
34. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi 2010-yil.
35. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.

Internet saytlari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)